

O'ZBEKISTONNING TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK ITTIFOQIDAGI O'RNI

Mamatov Behruz

O'zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasida 1 kurs magsitranti

Abstract: Ma'lumki, lisoniy, irqiy, madaniy jihatdan juda yaqin xalqlar va jamiyatlar orasida aynan Turk dunyosi amaliy integralizm harakatlarini eng kechikib boshladilar. Ulug' siyosat arbobi M.K.Otaturkning Turkiya va sobiq SSSRdagi turkiy xalqlar o'rtasida til, tarix va madaniyat ko'priklarini o'rnatish va bu ishni xalqlarning ozodlikka erishishini kutib o'tirmasdan amalga oshirish xususidagi ko'rsatmalari hayotga yetarlicha tatbiq qilinmadi.

Kalit so'zlar: Xalq, jamiyat, dunyo, siyosat, arbob, integralizm, ko'rsatma, strategiya, taktika, sur'at.

1990-yillar boshida Turkiya turkiy integralizmning lokomotivi bo'lishga hali tamoman tayyor emas edi. Shu sababli bu ishning strategiyasi va taktikasi "sinab ko'r-xato qil-tuzat" shaklida amalga oshirila bordi.[1] Masalan, Turgut O'zal davrida turkiy integralizm jarayonlari katta sur'atlar bilan borgan bo'lsa, undan keyingi rahbarlar davrida bu masala turk tashqi siyosatida hatto Yaqin Sharq va Yevropa masalalaridan ham keyingi navbatda turgani ma'lum. G'arbning tarafdori yoki uning siyosatini o'tkazuvchi o'yinchi bo'lish o'rniga ko'p qirrali siyosat yuritish orqali mintaqada va dunyoda ko'proq e'tibor va ta'sir kuchiga ega bo'lish siyosatini o'tkaza boshlagan 2000-yillardan keyin Turkiya turkiy tilli mamlakatlarda keng ko'lamli siyosatni boshlagan davlatlardan biri bo'ldi.

1990-yillarda mintaqada turklar ittifoqini targ'ib qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga qaramay, 2000-yillarning dastlabki dekadasi Turkiyaning ta'lim, madaniyat sohalarida faol bo'lgan "yumshoq kuch" o'sha yillari ayniqsa Qozog'iston va Qirg'izistonda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi.[2] Umuman, Turkiyaning mintaqadagi rivojlanishga ko'maklashish siyosati beshta asosiy ustunga ega: aloqa, transport, madaniyat, ta'lim, iqtisod va energetika sohalarida hamkorlik. Ushbu maqsadlarga muvofiq, Turkiya tomonidan qilingan eng muhim qadam TIKAning (Turkiya Respublikasi Bosh vaziri idorasi huzuridagi Turkiya hamkorlik va taraqqiyot agentligi) tashkil etilishi bo'ldi.[3] Turkiyaning Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar bilan aloqasini ildam rivojlantirishda TIKA taraqqiyotga ko'maklashish agentligi sifatida muhim rol o'ynadi.

Nihoyat, Turkiya tashqi siyosatning muhim quroli bo'lgan "yumshoq kuch" vositasidan unumli foydalana boshladi. Bu hol 1990-yillar boshida yaratilgan TurkSOY tashkilotining yoniga madaniy integralizmni rivojlantiradigan yana bir kuch va vosita kelib qo'shilganini anglatar edi. Bu jarayonlar 2009-yil 3-oktyabrda Naxchivan shahrida imzolangan Naxchivan bitimi bilan Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya ishtirokida tuzilgan yangi xalqaro tashkilot - Turkiy tilda so'zlashuvchi mamlakatlarning Hamkorlik Kengashi yoki Turkiy Kengash o'rtasida tashkil etilishi bilan o'z mantiqiy poyoniga yetdi. Vaholanki, Turkiy Kengash 1992-yildan to 2010-yilgacha bo'lib o'tgan Turkiy tilli mamlakatlar davlat boshliqlari sammiti formatidagi maslahatlashuvlarni turkiy tilda so'zlashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanganligi ramzi o'laroq xalqaro tashkilot shaklida ifoda etilishi edi. Turkiy davlatlar parlamentlari hamkorligi Turk kengashining faoliyati ko'lamini yanada orttirishi tabiiy edi. Shu sababli 2008-yil 21-noyabrda Turkiy tilli davlatlarning parlament assambleyasi (TurkPA) tashkil etildi. 2009-yil 29-sentyabrda Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasining 1-umumiy yig'ilishi

bo'lib o'tdi. Majlisda TurkPA Nizomnomalari, Kotibiyati va Boku deklaratsiyasi qabul qilindi. Shu bilan birga, TurkPA Kotibiyati doimiy ravishda Bokuda istiqomat qilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

TurkPA tashkil etilganidan keyin turkiy integralizmning ilm-fan, iqtisod va siyosiy hamkorlik parametrlari ham kun tartibiga olina boshlandi. Jumladan, 2009 yil 3 oktyabrda Ozarbayjonning Naxchivan shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli Prezidentlarning 9-sammitida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev turk dunyosi bo'yicha tadqiqotlar olib borish uchun xalqaro ilmiy markaz tashkil etishni taklif qilgan edidi. Turk akademiyasi 2010-yil 25-mayda Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida tashkil etilgan.[4] Tadqiqot markazining ochilish marosimida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev va Turkiyaning o'sha paytdagi Prezidenti Abdulla Gul, shuningdek Qozog'iston, AQSh, Rossiya (Tatariston, Boshqirdiston, Chuvashiston, Yoqutiston), O'zbekistondan kelgan taniqli turkologlar ishtirok etishdi. 2012-yil 22-23 avgust kunlari Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining Sammitida Turk akademiyasiga xalqaro maqom berish to'g'risida bitim imzolandi. Tasdiqlash jarayoni tugagandan so'ng, Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi huzurida Ostona shahrida 2010-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Turk akademiyasi 2014-yil 28-avgustda xalqaro tashkilot maqomini oldi. Shunday qilib, to'rtta turkiy tilli davlatlar (Ozarbayjon Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va Turkiya Respublikasi) tomonidan ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan xalqaro ilmiy markaz o'z faoliyatini "Xalqaro turk akademiyasi" nomi ostida olib borishni boshladi. Iqtisodiy hamkorlik masalalar ham kun tartibidan joy ola boshladi. Jumladan, 2011-yil 20-21 oktyabr kunlari Olmaotada "Iqtisodiy va tijorat hamkorligi" mavzusida Turk Kengashining birinchi Sammit yig'ilishi bo'lib o'tdi, uchrashuv munosabati bilan Kengashni institutsionalizatsiya qilish to'g'risida kelishuvlar tuzildi. Bundan tashqari, sammit munosabati bilan Turkiya ishbilarmonlar kengashi bilan a'zo davlatlarning ishbilarmon doiralarini mustahkam aloqalarini yo'lga qo'yishning choralari ishlab chiqildi.

Tashkilotning huquqiy tamali bo'lgan Naxichevan bitimi imzolanganining 10 yilligi arafasida O'zbekistonning Turk Kengashiga to'laqonli a'zo sifatida qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.[5] 2019-yilning 15-oktyabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turk Kengashining yettinchi sammiti arafasida O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi bilan birga Vengriya ham Turk Kengashi vakolatxonasining ochilishi va Turkmanistonning esa tashkilotda kuzatuvchi sifatida ishtirok etishga qaror qilgani Turk Kengashi tarixida yangi davr boshlanganidan dalolat berar edi. O'zbekistonning Turk Kengashiga a'zolingining o'z-o'zidan olingan qaror bo'lmaganini ta'kidlash lozim. Ungacha bo'lgan tadrijiy jarayonlarga qaralsa 2017- yilning 7-fevralida tasdiqlangan "2017-2021 yillar Harakatlar strategiyasi"da Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikning kuchaytirilishi tashqi siyosatdagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilganini ko'rish mumkin.

Zero, Shavkat Mirziyoyevning iqtidorga kelishi ortidan qilgan ilk faoliyati qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'ldi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston uchun Turk Kengashiga a'zolingiga oid masala ham birinchi navbatda, ushbu tashkilot doirasida mintaqa davlatlari bilan aloqalarni yanada mustahkamlash va o'zaro muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha platformada ishtirok etish sifatida talqin qilishini mumkin.

Mintaqa tashqarisidagi Turk Kengashning qolgan ikkita a'zosi bo'lgan Turkiya va Ozarbayjon bilan ham do'stona aloqalar yangi bosqichga chiqdi deyish mumkin. Ayniqsa, Turkiya bilan munosabatlarga to'xtalganda, oradan 18 yil o'tib, 2017 yilning 25-27 oktyabr kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga safar qilishi ikki tomonlama aloqalarning yanada mustahkamlanishida muhim qadam bo'ldi. O'tgan qisqa davr mobaynida Turkiya bilan savdo-tijoriy aloqalarining keskin bir tarzda ortgani ko'rilmogda. Xususan, savdo-iqtisodiy va investitsiya aloqalari kengayib borayotgan ayni paytda O'zbekistonda 500 ga yaqin turk firma va kompaniyalari faoliyat yuritayotgani va o'zaro savdo aylanmasining 2 milliard dollarga

yetgani buning yaqqol dalilidir. Qisqacha aytganda O'zbekistonning Turk Kengashiga a'zoliqi ko'p vektorli tashqi siyosat doirasida qardosh xalqlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan deyish mumkin. Shu o'rinda Cho'lponota Sammiti oldidan va undan keyin berilgan bayonotlar va bildirilgan fikrlarda O'zbekistonning Turk Kengashiga a'zoligining ahamiyati alohida urg'ulangani diqqatga sazovordir. Jumladan, Turk Kengashi Bosh kotibi o'rinbosari O'mar Kojaman O'zbekistonning tashkilotga a'zolining ahamiyatini quyidagicha ifoda etadi: "Turk Kengashiga O'zbekistonning va Turkmanistonning qo'shilishi juda muhim mavzudir. O'zbekiston boy tarixiy merosi, aholisi va dinamizmi bilan Turk Kengashining mustahkamlanishiga juda katta hissa qo'shish salohiyatiga ega. O'zbekistonning a'zo bo'lishi bilan Turk Kengashi iqtisodiyot, ta'lim, sport, turizm va transport sohalarida keng qamrovli loyihalarni amalga oshiradi. O'zbekistonning ishtiroki Turk Kengashiga kuch beradi. Turk Kengashi O'zbekistonning ishtiroki bilan mintaqaviy va xalqaro barqarorlikning mustahkamlanishiga muhim hissa qo'shadi" Fikrimizcha, umumturk integralizmining zamonaviy tendentsiyalaridan eng ustivori – dunyodagi bir qutbli yoki juft qutbli dunyodan ko'p qutbli geopolitik modelning ko'p qutbli dunyoga o'zgarishi ketayotgan bizning kunlarimizda Turk dunyosi yangi shakllanayotgan tizimda o'z o'rini olishi, u na G'arbning va na da Sharqning ta'qibchisi va iyartmasi bo'lmasligi kerak. Hech bir turkiy davlat dunyodagi biror super kuchning siyosatini o'tkazadigan platsdarmga aylanishi aslo mumkinemas. Tarixda bo'lganidek, Turk dunyosining bugungi jahon siyosati va iqtisodida o'z o'rini mavjud va masala faqat bu joyni munosib ravishda egallashdadir. Turkiy dunyoning bugungi kundagi geopolitik ahvoli, joylashuvi, potentsiali yaqin kelajakda ana shunday pozitsiyani egallashga yetadigan darajadadir. Bugun dunyoda kechagi holatlardan farqli yangi, noodatiy geografik va davlatlararo aloqa formatlari shakllanmoqda, mavjud sivilizatsiyalarning funksional parametrlari o'zgarmoqda.

Turk Kengashi ushbu global o'zgarishlar davrida o'z faoliyatini, Turk dunyosini rivojlantirish taktikasi va strategiyasini chuqur o'ylangan reja asosiga qurishi kerak. Dunyoda shakllanayotgan geosiyosiy senariylarda turkiy dunyo faktorini hisobga olishga olib keladigan mushtarak tashqi siyosat olib borilishi kerak bo'ladi. Birinchi navbatda zamonaviy dunyoning rivojlanish tendensiyasini yaxshi ilg'ash, davlatlarimizning siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy imkoniyatlarni eng perspektiv taraqqiyot jabhalariga yo'naltirish va sarflash lozim bo'ladi. Yangi texnologiyalar, "raqamli iqtisodiyot", "bilimlar iqtisodiyot"ga o'tish, rivojlangan davlatlarning tajribasini chuqur o'rganish zarur.[6]

Turk dunyosining siyosiy platformasi yanada adolatli dunyo tartibini barpo etish bo'lishi kerak. 19- a 20-asrdagi dunyodagi mavjud tartiblar Turk dunyosining zarariga ishlagani va uni halokat yoqasiga keltirib qo'yganini aslo unutmaslik lozim. Avvalo o'zaro integratsiya, so'ngra dunyoning boshqa moliyaviy-sivilizatsion markazlari bilan tenglikka va o'zaro manfaatlarga tayangan aloqalarni o'rnatish ham muhimdir. Turk dunyosi yagona geosiyosiy makon va mustaqil sivilizatsion tuzilmani tashkil etishi – pirovard maqsaddir. Geosiyosiy makonni tashkil qilishning mumkin bo'lgan variantlari qanday, Turkiy tilli davlatlar o'rtasida shakllangan integrativ tuzilmalarning faoliyatini global rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda shakllantirish va uning eng zamonavish shakllariga yo'naltirib turish muhimdir. Turkiy dunyoning hali hozirda boshqa davlatlarning muxtor respublika, viloyat shaklida mavjud bo'lgan a'zolari, qardosh turkiy xalqlar bilan bor imkoniyatlarni ishga solib til, madaniyat, ta'lim, bilim va texnologiyalar ko'priklarini qurishimiz lozim. Tatariston Respublikasi, Boshqirdiston Respublikasi, Kabardin-Balkar Respublikasi, Qorachoy-Cherkes Respublikasi, Tuva Respublikasi, Qrim Respublikasi va boshqalar (Rossiya), Shinjon-Uyg'ur avtonom viloyati (Xitoy), Gagauziyadagi (Moldova) 25-30 millionli turkiy tilli nufusning boshqa madaniy-lisoniy muhitda erib ketishining oldini olish uchun ular bilan aloqaning barcha shakllaridan foydalanish zarur.

Turkiy integralizm va turkiy sivilizatsiya komponentlari o'rtasidagi hamkorlik masalasini hal qilishning dolzarbligi bir qator omillarga asoslanadi, jumladan, integratsion birlashmaning hayotiyligini ta'minlash uchun hamjamiyat a'zolari va tomonlarning barchasining manfaatlarini to'g'ri hisobga olish hamda turkiy mintaqalarning potentsialini birlashtirish, umumiy sivilizatsion qadriyat va marralarni oldindan to'g'ri belgilash eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun bu ishni ilmiy asosga qo'yish kerak. Chunki har doim millatlar va hamjamiyatlarni bilim va texnologiyalarga asoslangan rivojlanish ilg'or marralarga olib chiqqan hamda ularni alohida sivilizatsiya sifatida taraqqiy etishining asosiy shartlaridan biri bo'lib kelgan.

Turkiy tilli davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini chuqurlashtirish-turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.[7] Bugungi kunda Turkiy davlatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'zaro savdo hajmining o'z salohiyati darajasidan bir necha barobar orqada ekanligi fonida tashkilot ichidagi savdo aloqalarini kengaytirish uchun qulay va jozibador shart-sharoitlar yaratish masalasi o'rta muddatli istiqbolning asosiy vazifalaridan biridir, deydi SMTI yetakchi ilmiy xodimi Aziz Salixov.

Turkiy davlatlar tashkilotining 8-sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokchi davlatlar doirasida savdo hamkorligi bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etishni taklif qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu tashabbusi turkiy davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmining kamayib ketayotganligi fonida muhim va dolzarbdir. Shuni ta'kidlash kerakki, 815 milliarddan ortiq umumiy savdo aylanmasiga hamda 160 million kishilik salohiyat bozorga ega tashkilot ishtirokchilarining o'zaro savdo munosabatlari 2020 yilda atigi 33,2 milliardni tashkil etdi (bu raqamlar tashkilotga a'zo davlatlar umumiy tashqi savdosining 4% dan ortig'ini tashkil etadi.). Bu ko'rsatkichning 21 milliard ichki importga to'g'ri keladi. Masalan, Turkiy tilli davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning O'zbekiston Respublikasi bilan umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 17% ni, Qozog'iston bilan 8,1% ni va Ozarbayjon bilan 14,5% ni tashkil etadi.[8]

Shuni ta'kidlash kerakki, nominal qiymatiga ko'ra Turkiyaning tashkilot davlatlari bilan savdodagi ulushi eng katta – qariyb 10 milliardni tashkil etadi. Bu esa turkiy davlatlarning tashqi savdosi asosan ularning an'anaviy bozorlariga qaratilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, tashkilotga a'zo davlatlar tovar aylanmasi tarkibida xomashyoning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Jumladan, xomashyo mahsulotlari – 50%, o'rta darajali texnologik mahsulotlar – 26%, past darajali texnologik mahsulotlar – 19% va yuqori texnologik tovarlar – faqat 5% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, texnologik mahsulotlar faqat Vengriya va Turkiya tomonidan eksport qilinadi.

Bundan tashqari, turkiy davlatlarning import oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan qaramligi yuqori. Masalan, Ozarbayjon 2019 yilda oziq-ovqat importini 19.9% ga (1,6 milliardgachagacha) oshirdi. Xuddi shunday holat Qirg'izistonda ham kuzatilmoqda. Mamlakat importi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyosining ulushi 2019 yildagi 7,6% dan 2020 yilda 10,3% ga oshgan. Shu o'rinda Qozog'iston ham bir qator oziq-ovqat mahsulotlari uchun importga qaram bo'lib qolmoqda, ularning bir qismi (shakar, tovuq go'shti va boshqalar.) xorijiy davlatlarning mahsulotlari hisobidan (80% dan ortiq) bilan qoplanadi.

Shu bilan birga, tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiyotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan koronavirus pandemiyasi oqibatlarini ham hisobga olish zarur. Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi ko'rilayotgan misli ko'rilmagan chora-tadbirlar, ishlab chiqarish va iste'molning qisqarishiga, savdo aloqalarining uzilishiga, tovar narxining pasayishiga va turkiy davlatlarda moliyaviy ahvolning yomonlashuviga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda hamda bugungi kunda Turkiy davlatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'zaro savdo hajmining o'z salohiyati darajasidan bir necha barobar orqada ekanligi fonida tashkilot ichidagi savdo aloqalarini kengaytirish uchun qulay va jozibador shart-sharoitlar yaratish masalasi o'rta muddatli istiqbolning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Shu nuqtai nazardan ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi savdo hamkorligi bo'yicha ilmiy tadqiqot markazi savdo-sotiqning qaysi jabhalarida o'sish imkoniyatlari yuqori ekanligini aniqlashda samarali vosita bo'la oladi.

Bunday tadqiqot markazining faoliyat yuritishi tashkilotning ishtirokchi davlatlariga o'zaro savdoni kengaytirishga to'sqinlik qiluvchi va yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda aniqlash imkonini ham beradi. Bu esa, o'z navbatida, turkiy davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama savdoni chuqurlashtirishning innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishanova, D. M. Zarojdenie ideologii tyurkizma // Molodoy ucheniy. № 14 , 304, 2020. VELASCO, C., María Dolores de la . In: Mariano Esteban de Vega, Francisco de Luis Martín y Antonio Morales Moya (Eds.). "Hispanoamericanismo. De la fraternidad cultural a la defensa de la Hispanidad".
2. Jirones de Hispanidad. España, Cuba, Puerto Rico y Filipinas, en la Perspectiva de Dos Cambios de Siglo. -Salamanca: Ediciones Universidad de Salamanca, 2004.
3. Kurtua, S., Vert N., Panne J-L., Pachkovskiy A., Bartosek K., Margolin Dj-L. Chyornaya kniga kommunizma = Le Livre Noir du Communisme. - M .: «Tri veka istorii». 2001.
4. Khajieva, G., Turkic integration: problems and prospects. Tyurkskaya integratsiya: problemi i perspektivy // Journal of Institute of Economic development and Social researches. Vol:2 / Issue:4, 2016, s.27-32.
5. Maxanova, A. N., Mexanizmi polyticheskogo prisutstviya Turtsii v «tyurkskix» gosudarstvax / A. N. Maxanova // Molodoy ucheniy. - № 13 (147), 2017.
6. Mcarthur, T., The Oxford Guide to World English. Oxford: Oxford University Press, 2002. s.112-117 .
7. Pan-Arabism and Arab nationalism: the continuing debate by Tawfic Farah, Publisher Westview Press, 1987.
8. Inernet-kaynaklar Akçali, P., Türk Dış Politikası ve Türk Dünyası > https://tasam.org/Files/Icerik/File/turk_dis_politikasi_ve_turk_dunyasi_588e3be0-87ba-4f51_bff1-0100f4540148.pdf (January, 2021). <https://www.turkkon.org/tr/haberler> (2019)(2104.2021).